
Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan brifing o'tkaziladi

25 yanvar kuni, soat 11:30 da Qo'shtepa tumani hokimligi majlislar zalida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tumanda olib borilayotgan ishlar (tadbirlar), shuningdek, "Ochiq, shaffof va hisobdor hudud" loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda ularning natijadorligi yuzasidan brifing o'tkaziladi.

Bosh prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Farg'ona viloyati boshqarmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi hamda tuman faollari ishtirok etishi kutilayotgan brifingda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatli organ rahbarlari tomonidan axborot berilishi nazarda tutilgan.

Brifing ochiq tarzda o'tkaziladi va unda ommaviy axborot vositalari vakillari ham ishtirok etishi mumkin.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2023-01-24 16:30:56